

Joriy yilning 7–9-iyul kunlari Toshkentda Digital Leadership forumi bo‘lib o‘tadi. Ushbu forum O‘zbekistonda o‘z biznesini dunyoga namoyish qilmoqchi bo‘lgan kompaniyalar ishtirok etishlari uchun zarur tadbirlardan biri hisoblanadi. Forumda 300 dan ortiq BPO va IT-outsorsing kompaniyalari, xorijiy tashkilotlar, tadbirkorlar hamda butun dunyodan 20 dan ortiq spikerlar ishtirok etadi. Bu nomzodlarga kompaniyalarining IT-outsorsing va BPO xizmatlarining yetakchi provayderi sifatida targ‘ib qilishga ajoyib imkoniyat yaratadi.

Forumda o‘z kompaniyangizni namoyish etishdan tashqari, O‘zbekistondagi BPO hamda IT-outsorsing kompaniyalar bozori va sharoitlarini o‘rganish imkoniyatiga ham ega bo‘lasiz. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan IT-hablardan biri bo‘lib, forum sizga ushbu o‘sib borayotgan bozor haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyatini taqdim etadi.

Forumda asosiy mavzular:

- **Panel sessiyasi:** Qanday qilib 2030-yilga qadar BPO va IT xizmatlari outsorsingi orqali 5 milliard AQSH dollar eksportga yetish mumkin?
- **O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi:** IT-outsorsing va BPO rivojlanish imkoniyatlari;
- Texnologiya va innovatsiyalar orqali iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish: **O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi;**
- Xalqaro markaz: **O‘zbekiston uchun Dubay tajribasi va istiqbollari;**
- **Globallashgan dunyoda** mijozlar tajribasining kelajagi;
- Venchur sessiyasi: **Venture capital ecosystem of Uzbekistan:** xalqaro strategiyalarni ko‘rib chiqish va amalga oshirish;
- **Women GAP** sessiyasi;
- **Panel diskussiyasi:** “Sun’iy intellekt sohasidagi etika va tartibga solish masalalari”;
- **Global IT Skills Gap:** Talablarni qondirish uchun IT-ta’limga sarmoya kiritish konferensiya;
- **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi doirasida raqamli hukumat tizimini joriy etish hamda shu kabi bir necha mavzularda yurtimiz yetakchi ekspertlari hamda xorijiy kompaniyalar vakillari o‘z chiqishlari bilan ishtirok etishadi.

Forum doirasida **“Huawei”** kompaniyasining mintaqaviy ofisi va **“ZTE”** kompaniyasining BPO markazi ochilish marosimi bo‘lib o‘tadi.

Shuningdek, **“Beeline”**ning yangi biznes yo‘nalishi ochilishi hamda **“Acharya”** universitetining ochilishi marosimi ham bo‘lib o‘tishi ko‘zda tutilgan.